

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TABIIY FANLAR 3-SINF DARSЛИGIDAGI “TABIATNI  
MUHOFAZA QILISH” MAVZUSINI O’TISHDA ZAMONAVIY O’QUV-DIDAKTIK  
VOSITALARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Urazova Guli

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo’nlishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o’quvchilarga tabiatni va tabiiy boyliklarni asrab-avaylash kerakligini, qo’riqxona va milliy bog’larni turlarinini o’rgatishda zamonaviy interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish haqida so’z boradi. O’quvchilarni yoshiga mos amaliy topshiriqlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** tabiat, qo’riqxona, interfaol metodla, amaliy topshiriqlar, Qizil kitob, o’simliklar, hayvonlar.

Bizga ma’lumki, ona tabiatimizni rang-barang o’simliklarsiz, hayvonot olamisiz tasavvur qilib bilmaymiz. Shuningdek, atrof-u olamda o’simlik va hayvonlarning juda ko’p tur va turkumlari tarqalgan. Jazirama, qurg’oqchil cho’llardan tortib, baland-baland tog’lar, qir-u adirlarda, hattoki dengiz, daryo, ko’llarda ham uchratish mumkin. Ular uzoq yillar davomida shu joylarning muhitiga moslashgan. Hozirgi paytda yer yuzida 500 mingdan ziyod o’simliklar, 2 millionga yaqin hayvon turlari tarqalgan.

Tabiat-bu bizni atrofimizdagи gullar, daraxtlar, hayvonlar, o’simliklar, daryolar va boshqalar. Tabiat tirik bo’lganligi sabab ham odamzot tirik, chunki biz havodan nafas olamiz, noz-ne’matlardan tanavvul qilamiz, undan yasalgan narsalarni kiyamiz. Shuning uchun ham, inson va tabiat bir-biriga chambarchas bog’liq hisoblanadi.

3-sinf Tabiiy fanlar darsligining 7-bobida 23-mavzusida “Tabiatni muhofaza qilish” mavzusi berilgan. Ushbu mavzuda boshlang‘ich sinf o’quvchilariga nima uchun Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar, o’simliklarni muhofaza qilinishi haqida tushuntirilib o’tildi. Muhofaza qilish maqsadida qo’riqxonalar tashkil qilingan. Yurtimizda hayvonlarni va o’simliklarni muhofaza qilish maqsadida bir nechta amaliy ishlar olib boriliyapti. Jumlaadan 1997-yilning 26-dekabrida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “O’simlik dunyosini muhofazaqilish va undan ratsional foydalanish” va “Hayvonlar dunyosini muhofaza qilish va undan ratsional foydalanish” qoninlari qabul qilindi.

Ushbu mavzuni o’rgatishda o’quv-didaktik vositalarining, interfaol metodlarning, amaliy topshiriqlarning ahamiyati nihoyatda katta.

**1-amaliy topshiriq.** Qarsak metodidan foydalansa bo’ladi. Bunda Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarni nomlari aytilsa, o’quvchilar ikki marta qarsak chalishadi. Agar Qizil kitobga kiritilmagan hayvon nomlari aytilsa bir marta qarsak chalishlari kerak bo’ladi. Masalan: Sigir, Turkiston silovsini, Qor qoploni, Kum efasi, quyon, echki, Tosh suvsar, kaltakesak, Amur yo’lbarsi, Mushk kiyiklari, Irbis, chumoli, pashsha.

Bitta qarsak	Ikkita qarsak
Sigir	Turkiston silovsini
Quyon	Qor qoploni
Echki	Kum efasi
Kaltakesak	Tosh suvsar
Chumoli	Amur yo'lbarsi
Pashsha	Mushk kiyiklari
	Irbis

Ushbu interfaol metodni o'tkazish orqali o'quvchilarning diqqati bir joyga jamlanadi, darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi.

**2-amaliy topshiriq.** Savollarga javob berib, kalit so'zlarini toping. Harfiy birikmalar ham bitta katakka joylashtiriladi. Namuna tarzida quyidagi topshiriqni ko'rib chiqamiz.

Vertikal: 1. Cho'l burgutlari qanday joylarda yashaydi? (cho'l)

3. O'simlik va hayvonlar davlat tomonidan muhofaza qilinadigan joy.(qo'riqxonan)

Gorizontal: 2. Ajriqlar qanday joylarda o'sadi? (to'qay)

4. Ko'zga ko'rinasmas kichik organizmlar.(mikrob)

				Ch					
		2.T	O'	3.Q	A	Y			
		L	O'						
				R					
					I				
					Q				
					X				
	4	I	K	R	O	B			
. M					N				
					A				

**3-amaliy topshiriq.** O'quvchilar o'tilgan mavzular yuzasidan “TABIAT” so'zining bosh harflaridan keluvchi so'zlarni yozib, izohlab berishlari kerak. Ushbu amaliy topshiriq orqali o'tilgan mavzular yanada mustahkamlanadi. Quyidagicha namunasini ko'rib chiqishimiz mumkin.

T	o	g'				
A	d	i	r			
B	u	l	b	j	l	
I	l	o	n			
A	r	c	a			
T	o	s				
		h				

To'g'- yer yuzasining tevarak atrofdagi tekisliklardan yakka yoki qator ko'tarilib turgan baland joylari;

Adir- tog'larning past-baland etaklari;

Bulbul-qush nomi

Ilon- sudralib yuruvchi hayvon;

Archa- sarvdoshlar oilasiga kiruvchi daraxt turi

Tosh- qattiq jism.

Xulosa qilib aytganimizda, “Tabiatni muhofaza muhofaza qilish” mavzusi o'tilganda, didaktik o'quv-vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki bu vositalarni qo'llash orqali o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tabiiy fanlar [Matn]: 3-sinfi uchun darslik/ Z. Sangirova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.-136 b.
2. Tabiiy fanlar 3[Matn]: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / Z. B. Sangirova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.-136b.
3. uz.m.wikipedia.org